
TADBIRKOR BILAN UChRASHUV

Tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkor va ishbilarmonlar uchun qulay sharoitlar yaratish – iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi turmush farovonligini yanada yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Bugun nafaqat ishlab chiqaruvchi, tijorat va biznes olami vakili, balki jamoatchilikning faol a‘zosi sifatida xalq bilan birga, uning dardu tashvishi, quvonchi bilan yashayotgan tadbirkor bilan yanada jipslashib ishlash, uning dardi-holini eshitish, muammolariga tezda yechim topish davrimizning dolzarb vazifasiga aylandi. Mamlakatimiz iqsodiyotini tadbirkorlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki aholining bandligi, daromadining doimiyligi va uzluksizligi, qolaversa, byudjet tushumlari salmog‘i aynan tadbirkorlikka bog‘liq.

Rishton tumanida bu boradagi ishlar uzluksiz davom ettirilmoqda. Xususan, tuman hokimi har kuni tadbirkorlar bilan uchrashuv o‘tkazish odatga aylangan. Ana shunday uchrashuvlardan biri bugun usta-kulol, yosh tadbirkor, “Mingboshi Keramik” korxonasi rahbari Shokirjon Ahmadjonov bilan bo‘ldi. Uchrashuv davomida tuman hokimi uning yangi g‘oyalari, yangi ish rejalari bilan tanishdi.

2023-01-24 15:58:38